

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TARIX INSTITUTI**

**DAVRONBEK ZOXYDJON O‘G‘LI OLIMJONOV**

**“BOBURNOMA” ASARI – TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASINI  
O‘RGANISHDA MUHIM TARIXIY-ETNOGRAFIK MANBA**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent, 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Davronbek Zoxidjon o‘g‘li Olimjonov**

“Boburnoma” asari – turkiy xalqlar etnografiyasini o‘rganishda muhim tarixiy-etnografik manba.....3

**Davronbek Zokhidjon ugli Olimjonov**

“Baburname” – is a significant historical-ethnographic source for the study of the ethnography of the Turkic peoples.....25

**Давронбек Зоҳиджон угли Олимжонов**

«Бабурнаме» – важный историко-этнографический источник изучения этнографии тюркских народов .....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**List of published works**

**Список опубликованных работ.....52**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TARIX INSTITUTI**

**DAVRONBEK ZOVIDJON O‘G‘LI OLIMJONOV**

**“BOBURNOMA” ASARI – TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASINI  
O‘RGANISHDA MUHIM TARIXIY-ETNOGRAFIK MANBA**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent, 2025**

**Falsafa doktori (Philosophy of Doctor) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar1619 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fati.uz) va “ZiyoNet” (www.ziynet.uz) axborot-ta’lim tarmog‘iga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Adhamjon Azimboyevich Ashirov**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Alisher Xudayberdiyevich Doniyorov**  
tarix fanlari doktori, professor

**Saodat Tilovberdiyevna Davlatova**  
tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzuridagi ilmiy darajalarini beruvchi DSc.02/30.12.2019 Tar.56.01 raqamli Ilmiy Kengashning **2025-yil 5-dekabr** kuni soat **14-00** dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi 5-uy, Tarix instituti binosi, 8-qavat Majlislar xonasi. Tel.: (+99871) 233-54-70; faks: (+99871) 233-39-91; e-mail: info@fati.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy). Tel: (+99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-noyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 19-noyabrdagi 17-raqamli reestr bayonnomasi)



**Azamat Ziyo**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, akademik

**X.S. Jumanazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, tarix fanlari doktori (DSc)

**F.S. Boboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc)

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Globallashuv sharoitida turkiy xalqlarning madaniy o'zligi, urf-odatlar va qadriyatlarining ildizlarini aniqlash masalasi mintaqaviy hamda jahon miqyosida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir. O'zbek davlatchiligining muhim bo'g'ini bo'lgan temuriylar davrida yaratilgan manbalar o'zbek xalqi, shuningdek, butun kishilik madaniyat taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu davrga oid xalq va madaniyatning boy tarixini asl holicha kelajak avlod hamda keng jamoatchilikka yetkazib berish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarining qator ilmiy tadqiqot markazlarida Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar davri tarixiga oid keng ko'lamli izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda Boburning "Boburnoma" asari turkiy, afg'on va hind xalqlari madaniyatini o'rganishda asosiy manba sifatida e'tirof etilib, manbashunoslik, tarixshunoslik hamda madaniyatshunoslik yo'nalishlarida salmoqli ishlar qilingan. Shu bilan birga, asarda aks etgan etnik tarix, toponimiya, tabiat va o'simlik dunyosiga oid qarashlar, xalq xo'jaligi manzarasi, oila hamda oilaviy munosabatlar talqini, moddiy va nomoddiy madaniy meros masalalarini etnografik nuqtayi nazardan tahlil qilish alohida ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ayniqsa, tarix fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'zbeklar madaniyatida alohida o'rin tutgan davrlar tarixini ochib beruvchi manbalarni o'rganishga qaratilgan yirik izlanishlar olib borilmoqda. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini birlamchi manbalar asosida to'liq hamda xolisona baholash, "Tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham, ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib voris sifatida tarbiyalash"<sup>1</sup> dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu jihatdan, "Boburnoma" asari 15 – 16-yuzyillikdagi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xalq turmushi, xo'jalik faoliyati, moddiy va nomoddiy madaniyatini yoritib beruvchi elshunoslikka oid manba sifatida o'rganilishi fan uchun juda muhimdir.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-sonli "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda 2025-yil 15-apreldagi Yangi Andijon shaharchasiga "Bobur shahri" deb nom berish yuzasidan nutqlari mazkur

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 471-bet

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Zahiriddin Muhammad Bobur dunyo tarixiga o'zining boy ilmiy merosi, davlat boshqaruvi va mohir sarkardalik ilmi bilan ulkan hissa qo'shgan. Uning elshunoslikka oid qarashlari, xalq hayotini tasvirlash, moddiy va nomoddiy yodgorliklarga bo'lgan hurmati, tabiatni asrash, bunyodkorliklarni amalga oshirish kabi g'oyalarni o'rganish bo'yicha qator olimlar ish olib bormoqdalar. Shuning uchun "Boburnoma"ni tarixiy-elshunoslik nuqtayi nazardan o'rganishni shartli ravishda uchta guruhga bo'lish mumkin:

1. Sovetlar davrida bajarilgan tadqiqotlar.
2. Mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar.
3. Xorijiy tadqiqotlar.

Zahiriddin Muhammad Bobur va "Boburnoma" asarini tarixiy jihatdan o'rganish, amalga oshirilgan ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, "Boburnoma"dan ayrim tadqiqotlarda elshunoslikka oid qismlaridan foydalanilgan bo'lsa-da, lekin asar etnografiya fani nuqtayi nazaridan akademik tadqiqot sifatida maxsus o'rganilmagan. Mavzuning tarixshunosligi mazkur dissertatsiyaning birinchi bobida batafsil bayon etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining "O'zbeklar: tarixi, madaniyati va an'analari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) ikki jildlik akademik ilmiy asari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** "Boburnoma" asari turkiy xalqlar elshunosligini tadqiq etishda muhim manba sifatidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"Boburnoma"ning manbashunoslik va tarixshunosligi tahlilini amalga oshirish, uning tarixiy-etnografik manba sifatidagi ilmiy ahamiyatini aniqlash;

asarda Turon tarixiga oid qayd qilingan etnonim va toponimlarni o'rganish;

Zahiriddin Muhammad Boburning tabiat va o'simliklar bilan bog'liq qarashlari, qomusiy asardagi tabiat hamda nabotot olami bilan bog'liq qismlarni tahlil qilish;

turkiy xalqlarning o'rta chog'lardagi xo'jalik hayotini "Boburnoma" asari orqali qiyosiy o'rganish;

asardagi oilaviy marosimlar va an'analarni o'zbek xalqi milliy qadriyatlari bilan taqqoslash;

"Boburnoma" asarida qayd etilgan kiyimlar va ularning Boburiylar davridagi evrilishlarni aniqlash hamda tahlil qilish;

asardagi nomoddiy madaniyat, xususan, xalq bayramlari, sayillar va milliy

o'yinlarning ijtimoiy-madaniy jihatlarini turkiy xalqlar bilan qiyosiy tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “Boburnoma” asari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** o'rta chog'da Turonda yashagan turkiy xalqlar turmush tarzi, xo'jaligi, moddiy va nomoddiy madaniyat yodgorliklarini “Boburnoma” asari orqali etnografik tadqiqi bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli-funksional tahlil, statistik-qiyosiy solishtirish, etnografik rekonstruksiya, hududiy-geografik hamda xronologik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

“Boburnoma” matni asosida turkiy xalqlar elshunosligiga oid 100 dan ortiq etnografik atamalar tizimli ravishda jamlanib, tahlil qilindi va ular mavzuli (*etnik tarix, toponimlar, xo'jalik, o'simliklar, moddiy va nomoddiy madaniyat*) yo'nalishlarda o'zbek xalqi elshunosligini o'rganishda muhim manba bo'lishi ilmiy asosda dalillangan;

“Boburnoma”ni zamondosh manbalari (*Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, G'iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyar”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” hamda Abulfazl Allomiyning “Oyini Akbariy”*) bilan qiyosiy o'rganilishi asosida Bobur va Boburiylar sulolasi davrida Hindistonda ekin turlarini iqlimga moslashtirish hamda bog'dorchilikda tajriba-sinov ishlari yangi xo'jalik tarmogi sifatida shakllanib, qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangani ilmiy asosda isbotlangan;

Boburiylar davrida Hindiston madaniyatiga turkiy xalqlariga xos milliy kiyim (*chorqab, joma, poyjoma, nimcha, lachak, toqi kabi liboslar*)larning kirib kelganligi va ular hind milliy liboslari bilan uyg'unlashgan holda yangi kiyim turlari (*ulbog'cha, takauchiya, dutahi, so'zani, qalami*) shakllangani aniqlangan;

“Boburnoma”da qayd etilgan turli bayramlar (Navro'z, Ramazon, Qurbon, Hosil bayramlari, lola, suv, uzum, qovun, xazonrez sayillari), marosim va tomoshalar (*kurash, ot poygasi, zehgirtaroshlik, lashkar ko'rigi, qovoq, chavg'on, xo'roz, qo'chqor va tuya urushtirish kabi*) turkiylar ijtimoiy hayotida jamoaviy muloqot vazifasini bajarganligi qiyosiy ma'lumotlar asosida asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

Zahiriddin Muhammad Boburning o'z davr va shaxslarga xolis baho bergan olim sifatidagi faoliyati hamda o'ziga xos elshunoslik nuqtayi nazardan qarashlari asoslangan.

Asar muallifining elshunoslik qarashlarida Boburiylar davri manbalari bilan taqqoslagan holda undagi evrilishlar aniqlangan. Bundan tashqari, “Boburnoma”ning qo'lyozma nusxalari, tarjimalari, asarda keltirilgan toponimlar, ekinlar, o'simliklar, kiyimlar bo'yicha maxsus jadval tuzilgan va shu asosda asarni o'rganish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Asarda keltirilgan etnonimlar va ularning tadqiqot davridagi joylashuvini o'zida aks ettirgan etnik xarita yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dissertatsiya milliy va ellararo ilmiy yig'in to'plamlari hamda ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan adabiyot va risolalardagi xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy

etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Boburnoma” asari elshunoslik jihatdan tadqiq etilganligi, uning asosida Turon aholisining etnik tarkibi, xalq xo‘jaligi, moddiy va nomoddiy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlarning tahliliy umumlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatida ilgari surilgan xulosalarning turkiy xalqlar tarixiga bag‘ishlangan maxsus filmlar yaratish, sohaga oid muzeylarda ko‘rgazmalarni tashkil etish, O‘zbekiston moddiy va nomoddiy tarixi ma’lumotlarini to‘ldirish hamda yangilash, shuningdek, Respublikadagi mavjud “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy merosining taqdimotiga oid ma’ruzalar, oliy o‘quv yurtlarida darslik, o‘quv qo‘llanma hamda qo‘shimcha adabiyotlar tayyorlash borasida davlat dasturlarini bajarishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

“Boburnoma” matni asosida o‘rta asrlarda turkiy xalqlar elshunosligi bilan bogliq 100 dan ortiq etnografik atamalar aniqlangan va ular mavzuli (*etnik tarix, toponimlar, xo‘jalik, o‘simliklar, moddiy va nomoddiy madaniyat*) yo‘nalishda yoritilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2025-yil 24-iyundagi 01-33/484-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarning joriy etilishi Zahiriddin Muhammad Bobur va uning “Boburnoma” asari to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlarni ommalashtirishga xizmat qiladi;

Boburnoma”ni zamondosh manbalari (*Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, G‘iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyar”, Gulbadanbeginning “Humoyunnoma” hamda Abulfazol Allomiyning “Oyini Akbariy”*) bilan qiyosiy o‘rganilishi asosida Bobur va Boburiylar sulolasi davrida Hindistonda ekin turlarini iqlimga moslashtirish hamda bog‘dorchilikda tajriba-sinov ishlari yangi xo‘jalik tarmogi sifatida shakllanib, qishloq xo‘jaligining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangani ilmiy asosda isbotlangan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2025-yil 24-iyundagi 01-33/484-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalari o‘rta asrlar madaniyati haqidagi tasavvurni boyitilishiga xizmat qiladi;

Boburiylar davrida Hindiston madaniyatiga Turon xalqlariga xos milliy kiyim (*chorqab, joma, poyjoma, nimcha, lachak, toqi kabi liboslar*) larning kirib kelganligi va ular hind milliy liboslari bilan uyg‘unlashgan holda yangi kiyim turlari (*ulbog‘cha, takauchiya, dutahi, so‘zani, qalami*) shakllangani aniqlangan (O‘zbekiston madaniyat vazirligi huzuridagi Ta’lim markazining 2025-yil 21-avgustdagi 125-sonli ma’lumotnomasi). Uning ilmiy natijasi sifatida o‘zbek madaniyatining afg‘on, hind milliy madaniyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan kabi lavhalar “Boburnoma” asari orqali namoyon bo‘lib, o‘zbek madaniyatini ommalashtirish targ‘ibotiga xizmat qiladi;

“Boburnoma”da qayd etilgan turli bayramlar (Navro‘z, Ramazon, Qurbon, Hosil bayramlari, lola, suv, uzum, qovun, xazonrez sayillari), marosim va tomoshalar (*kurash, ot poygasi, qabaq, zehgirtaroshlik, chavg‘on, lashkar ko‘rigi, xo‘roz, qo‘chqor va tuya urushtirish kabi*) turkiylar ijtimoiy hayotida jamoaviy muloqot vazifasini bajarganligi qiyosiy ma‘lumotlar asosida asoslangan (O‘zbekiston madaniyat vazirligi huzuridagi Ta‘lim markazining 2025-yil 21-avgustdagi 125-sonli ma‘lumotnomasi). Uning ilmiy natijasi sifatida o‘zbek madaniyatining bayram, xalq sayillar va milliy o‘yinlariga oid lavhalar “Boburnoma” asari orqali namoyon bo‘lib, o‘zbek nomoddiy madaniyati bilimlarining targ‘ibotiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta ellararo va 9 ta milliy ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola milliy, 1 tasi xorijiy jurnallar, 17 tasi esa milliy hamda ellararo ilmiy-amaliy yig‘inlar to‘plamlarida e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya Kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan

Dissertatsiyaning **“Boburnoma”ning manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili** deb nomlangan birinchi bobida Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo‘li va uning qalamiga oid “Boburnoma” asari, ushbu asarning qo‘lyozma nusxalari, nashrlari, yozilish tarixi, mazmuni va uslubi, shuningdek, asarning O‘zbekiston va ellararo o‘rganilishiga doir ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Mazkur bobning **“Boburnoma”ning manbashunoslik tahlili** deb nomlangan birinchi qismida Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyatiga tarixchi–elshunos olim sifatida baho berilib, “Boburnoma”ning elshunoslik manbasi nuqtayi nazardan ahamiyati ochib berilgan.

“Boburnoma” dastlabki tarixiy memuar (xotira) asar hisoblanadi. Uning dunyo bo‘ylab saqlanayotgan 17 ta nusxasi bo‘lib, lekin asl qo‘lyozmasi yo‘qolgan. Bu borada ingliz sharqshunosi Annet Beverij asl nusxasi Buxoroda

ekanligini tahmin qiladi<sup>2</sup>. Bunga asarning 1528-yil voqealari bayonida kitobni Shaqraq orqali Mirzo Kalonga yuborilganlik haqidagi lavha sabab bo‘ladi<sup>3</sup>. Asarning asl nomi “Vaqoyi” bo‘lgan<sup>4</sup> va “Voqeoti Bobur”, “Tuzuki Boburiy” va boshqa nomlarda atalgan, lekin “Boburnoma” nomi bilan mashhurlikka erishgan.

Asar birlamchi manba sifatida keyingi davrlarda yaratilgan tarixiy manbalar, jumladan, “*Humoyun podshoh ahvoli*” (“*Humoyunnoma*”), “*Tarixi Rashidiy*”, “*Habib us siyar fi axbor afrod ul bashar*” (“*Inson zoti xabarlarini va do‘stning tarjimai holi*”), “*Qonuni Humoyuniy*”, “*Akbarnoma*”, “*Tazkirayi Humoyun va Akbar*”, “*Tabaqoti Akbariy*” hamda “*Jahongirnoma*” kabi asarlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Boburiy hukmdorlar “Boburnoma”ni qadrlaganlar, davlatni boshqarish, siyosat tutishga doir tajriba nuqtayi nazaridan ham e‘zozlaganlar, Bobur boshlab bergan tarix yozish an‘anasini o‘ziga xos tarzida davom ettirganlar<sup>5</sup>.

Asarning elshunoslik jihatdan o‘rganishda antropologik qiyofani yaratish, etnonimlar, xo‘jalik hayot, moddiy va nomoddiy madaniyatga doir ma‘lumotlarda turkiy xalqlarning o‘rta chog‘ elshunosligi tahlil etilgan.

“Boburnoma”ning manbashunoslik tahlilida e‘tibor qaratiladigan yana bir muhim jihat – asarning tili va uslubidir. Asarning tili lo‘nda, ravon va tabiiy<sup>6</sup> bo‘lib, bunday holat asarning xalqchilligi jihatdan manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, Bobur mavjud holatni tasvirlashda xolislikka intilgan, voqealarni ortiqcha oshirish yoki o‘zicha baholashdan tiyilgan. Bu usul asardagi tarixiy ma‘lumotlarning ishonchliligini ta‘minlagan.

Mazkur bobning ikkinchi qismi “**Asarning o‘rganilish tarixi**” deb nomlanib, tarixshunoslik jihatidan shartli ravishda 3 guruh, jumladan, 1) Sovet mustamlakachiligi yillarida bajarilgan tadqiqotlar; 2) Mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar; 3) Xorijiy tadqiqotlarga bo‘lib tahlil qilindi.

*Birinchi guruh* tadqiqotlariga tavsif berilar ekan, shuni alohida qayd etish lozimki, 20-yuzyillik boshlarida yashagan millat oydinlari, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Bo‘lat Soliyev, Sadriddin Ayniy o‘z asarlarida<sup>7</sup> “Boburnoma”ga ko‘p murojaat etgan bo‘lsa-da, asar bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar 20-yuzyillikning 40-yillaridan boshlangan. Mazkur davrdagi tarix fani nuqtayi nazardan dastlabki yirik tadqiqot Sabohat Azimjonova tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, uning tadqiqoti Zahiriddin Muhammad Boburning Kobul va Hindistondagi siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan<sup>8</sup>. T. Fayziyev temuriylar davridagi davlat siyosiy va madaniy hayotda ayollarning ishtirokiga alohida e‘tibor qaratib,

<sup>2</sup> Babur-nama (Memoris of Babur). Translated from the original turki text of Zahiruddin Muhammad Babur padshah Ghazi by Annette Susannah Beveridge. – Dehli, 1989. – P. 12.

<sup>3</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарк, 2002. – Б. 251.

<sup>4</sup> Zahir ad-din Muhammad Babur. Baburname (Vaqa'i). Critical edition based on four chagatay texts with introduction and notes by Eiji Mano. – Kyoto: Nakanishi Printing, 1995. – P. 14.

<sup>5</sup> Зиё А. Тузуки Жаҳонгирий // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994. – №27. – Б. 2.

<sup>6</sup> Назарова Х. Бобур ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 35.

<sup>7</sup> Бехбудий М. “Сарт” сўзи мажхулдир // Ойна. – 1914. – №25. – Б. 386-388. Фитрат А. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент: Ўздавнашр, 1928. – 128-бет; Солиев Б. Бухорода қимматли асарлар // Инкилоб. – 1922. – №2. – Б. 20-23; Садриддин Айний. Самарқанд шаҳри // Маориф ва ўқитувчи. – 1928. – №10. – Б. 47-50.

<sup>8</sup> Азимжонова С. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. – Москва: Наука, 1977. – С. 12.

xususan, Gulbadanbegimni sharqdagi birinchi tarixchi ayol sifatida e'tirof etadi<sup>9</sup>. S. Jalilov temuriylar hukmronligi davrida Farg'ona viloyati boshqaruvining qisqacha tarixini, uning shayboniylar tomonidan egallanish jarayonini, shuningdek, Boburning Afg'oniston va Hindistondagi faoliyatini tahlil qilib, "Boburnoma"ni Rim imperatori Yuliy Sezarning asarlari bilan qiyoslaydi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, Sezarning asarlari faqat Rim davlati tarixi uchun ahamiyatli bo'lsa, "Boburnoma" Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tarixi hamda jug'rofiyasi uchun qimmatli manba hisoblanadi<sup>10</sup>.

*Ikkinchi guruhga* O'zbekistonning mustaqillik erishgandan so'ng milliy qadriyatlarning tiklanishi va tarixiy merosga bo'lgan munosabatning o'zgarishi natijasida ko'plab buyuk siymolar, jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va uning shoh asariga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. I. Hoshimov o'z tadqiqotida boburiy malika Nurjahonbегinning guldан moy olish orqali atirni kashf qilganligini qayd etgan<sup>11</sup>. I. Nizomiddinov izlanishlarida elchilik bilan bog'liq maxsus kiyimlar, ularning turlari va "xilat" marosimi haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan<sup>12</sup>. D. Yusupova Boburiylar manbalariga jiddiy e'tibor qaratgan bo'lib, uning boburiylar yozma manbalarining O'zbekiston qo'lyozmalar fondidagi saqlanish holati va ular haqida ma'lumotlar bergan<sup>13</sup>. Olimaning fikricha, "Boburnoma" soha tadqiqotchilari uchun muhim manba bo'lishi bilan birga yondosh manbalar bo'yicha ham muhim yo'lko'rsatkich vazifasini bajaradi. N. Nizomiddinov esa "Boburnoma" va Boburiylar davri manbalaridagi muhim atamalar ro'yxati ham keltirilgan, sulolani "buyuk mo'g'ullar" deyilishidan avval, hind xalqi ularni "mo'g'uliy a'zam" deb ataganini qayd etgan<sup>14</sup>.

"Boburnoma" asari M. Nuriddinov<sup>15</sup>, R. Shamsutdinov<sup>16</sup>, O. Bo'riyev<sup>17</sup>, N. Nizomiddinov<sup>18</sup>, A. Madraimov<sup>19</sup>, G'. Sotimov<sup>20</sup> va B. Yo'ldoshev<sup>21</sup> tomonidan tarixiy manba sifatida chuqur tahlil etilib, unda asarning tarixiy voqealarni yoritishdagi aniqligi, davlat boshqaruvi, diplomatiya, madaniyat va san'at

---

<sup>9</sup> Файзиев Т. Темурий маликалар. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1994. – 67-бет; О'sha muallif: Захириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 95-бет.

<sup>10</sup> Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 56.

<sup>11</sup> Ҳошимов И. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 52.

<sup>12</sup> Низомиддинов И. XVI–XVIII асрларда Ўрта Осиё – Ҳиндистон муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 56.

<sup>13</sup> Юсупова Д. Рукописные источники по истории Индии XVI–XVII вв. в фонде института Востоковедения АН УзССР / Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 75 – 86; О'sha muallif: Фарғона водийсига Бобурнома билан саёхат // "Жаҳон тарихи ва маданиятида Захириддин Муҳаммад Бобур" номли конференция материаллари. – Тошкент, 2013. – Б. 23-29.

<sup>14</sup> Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар сулоласи. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – Б. 5.

<sup>15</sup> Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. – Тошкент: Фан, 1994. – 48-бет.

<sup>16</sup> Шамсутдинов Р. Бобурни излаб. – Андижон: Мерос, 1993. – 195-бет.

<sup>17</sup> Бўриев О. Бобурномадаги топонимлар изохли луғати. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 223-бет; О'sha muallif: Захириддин Муҳаммад Бобур давлати харитаси / Тузувчилар: О. Бўриев, А. Шарипов. – Тошкент, 2022.

<sup>18</sup> Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар сулоласи. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 516-бет.

<sup>19</sup> Мадраимов А., Машрабов З. Темурий ва бобурийлар санъати. – Тошкент: Шарқ, 2022; – 384-бет; О'sha muallif: Мадраимов А. Буюк шоир ва олимнинг ажойиб тақдири, ғаройиб саргузаштлари ва ибратли ҳаёти. – Тошкент: NIF MSH, 2024. – 328-бет.

<sup>20</sup> Сотимов Ғ. Бобурийзодалар. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 144-бет; О'sha muallif: Марказий Осиё ва Ҳиндистон тарихида Бобурийлар даври. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2008. – 128-бет.

<sup>21</sup> Ёўлдошев Б. Бобурий маликалар. – Тошкент: Шарқ, 2018 – 74-бет; О'sha muallif: Бобурпур. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014; – 56-бет; О'sha muallif: Нуржаҳон бегим. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014; – 44-бет; О'sha muallif: Бобур йилномаси. – Тошкент: Мутафаккир, 2024. – 48-бет.

masalalarini aks ettirishdagi o'zni hamda manbashunoslik va tarixshunoslikdagi ilmiy ahamiyati asoslab berilgan.

A. Ashirov, A. Qayumov, U. Qoraboyev, U. Abdullayev, S. Davlatova va boshqa elshunos olimlar "Boburnoma" ma'lumotlaridan foydalanib, o'z ilmiy tadqiqotlarida o'zbek xalqining madaniyati, etnik jarayonlari, bayram an'analari, milliy kiyimlari va etnoslararo munosabatlarini o'rganganlar<sup>22</sup>.

Ilmiy faoliyati boshqa sohalarda bo'lsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur va "Boburnoma" asari tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunoslar – Sodiq Mirzayev, Saidbek Hasanov, Aziz Qayumov, Anzoriddin Ibrohimov, Hasan Qudratullayev, Pirmqul Qodirov, Ismoil Bekjonov; geograf – Hamidulla Hasanov; geolog – Zokirjon Mashrabov; matematik – Abdulla A'zam; arabshunos – Shokirxo'ja Rustamxo'jayev, shifokor Mirmahmud Mirsaydullayev va boshqa olimlarning ilmiy xizmatlari ahamiyatlidir<sup>23</sup>. Bu tadqiqotlar asarning ko'ptarmoqli xususiyatini anglatib, adabiyotshunoslar asarning badiiy-estetik jihatlarini tahlil etgan bo'lsalar, geograf, tuproqshunos, matematik, arabshunos va tibbiyot sohasi olimlarining izlanishlari "Boburnoma"dagi tabiat, geologik kuzatishlar, matematik aniqlik, til xususiyatlari hamda tibbiy ma'lumotlarning ilmiy talqinini boyitgan. Ushbu yondashuvlar Bobur merosining tarmoqli ilmiy qiymatini oshirib, soha tadqiqotlari uchun muhim manbaviy asos yaratdi.

*Uchinchi guruhga* xorijiy tadqiqotlar hisoblanadi. Aynan bu guruhga oid tadqiqotlar 17-yuzyillik so'ngidan boshlangan bo'lib, "Boburnoma"ning matni bo'yicha amalga oshirilgan. Jumladan, dastlabki tadqiqot 1697-yilda fransuz sharqshunosi Bartolame Ervalo "Bobur yoki Bobar" nomli maqola tarzida Fransiyada e'lon qilingan<sup>24</sup>. Keyinchalik 1705-yilda N. Vitsen tomonidan "Boburnoma" asari dastlab niderland tilida tarjima qilingan<sup>25</sup>. Matnshunoslik va

---

<sup>22</sup> Аширов А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент. 2020. – 240-бет; Қаюмов А. "Бобурнома" – этник жараёнларни ўрганишда муҳим манба / "Муҳаммад Бобурнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни" номли илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2013. – Б. 105-106; Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 240-бет; Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 177-бет; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX – XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 215-бет.

<sup>23</sup> Қаюмов А. Асарлар. 10-жилдлик, 5-жилд. Захириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2009. – 303-бет; Азимджанова С., Қаюмов А. Захириддин Муҳаммад Бобур. Предисловие к «Избранным сочинениям». – Ташкент: АН Узбекистан, 1959. – 344-стр; Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Тошкент: Шарқ, 2009. – 383-бет; О'ша муаллиф: Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. – Тошкент: Шарқ, 2011– 431-бет; Ҳасанов С. ва бошқ. Буюк комусий асар – Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002 – 335-бет; О'ша муаллиф: Захириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011– 84-бет; Қодиров П. Юлдузли тунлар. (Тарихий роман). – Тошкент: Фафур Ғулом, 1980; – 436-бет; Ҳасанов Ҳ. Бобур жойлари (Афғонистондан хат) // Шарқ юлдузи. – 1963. – №5. – Б. 14. О'ша муаллиф: Ўрта осийлик географ ва сайёҳлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – 252-бет; О'ша муаллиф: Бобур – сайёҳ ва табиатшунос. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 62-бет; Бобур ва Бобурийлар библиографияси / Тузувчилар: Ш.Ш. Рустамхўжаев, З.Ш. Бердиева. – Андижон, Andijon nashriyot-matbaa, 2014. – 482-бет; Мирсайдуллаев М. Бобурнинг касаллик тарихи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – 221-бет; Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. – Тошкент: Encyclopedia World, 2023. – 76-бет; О'ша муаллиф: "Бобурнома" – буюк асар. – Тошкент: Encyclopedia World, 2023. – 81-бет.

<sup>24</sup> Derbelo D. Babur or Babir / Eastern Kutubonus or a dictionary of dictionaries on the knowledge of the citizen of the East. – Paris, 1897. – P. 268.

<sup>25</sup> Otajanov N. The problems of development and continuity of the translations of the "Memories of Bobur" // Экономика и социум. – 2022. – №9. – P. 176.

tilshunoslik sohalarida “Boburnoma”ning qo‘lyozmalarini topish, tanqidiy matnini yaratish, xorijiy tillarga tarjima qilish borasida salmoqli tadqiqotlar olib borilgan<sup>26</sup>.

Tarix nuqtayi nazardan asarni o‘rganishda U. Erskin Boburning Hindistonga kirib kelishi, u yerdagi madaniy integratsiyani kuchaytirgan, ayniqsa, bog‘lar madaniyati “baghbaniyat”<sup>\*</sup>ni Hindistonga olib kirgan va bu orqali yangi ijtimoiy-madaniy makon yaratgan deb hisoblaydi<sup>27</sup>. I. Habibning tadqiqoti Boburiylar davridagi Hindiston qishloq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rganilgan, xususan, dehqonlar hosil yig‘ishdan avval muqaddas daraxtga atab, ehson qilish kabi marosimlarini o‘tkazgan, bunday odatlar xalqning tabiatga bo‘lgan qadimiy e‘tiqodlari bilan bevosita bog‘langanligini yozgan<sup>28</sup>. S. Chantra Boburiylar hukmronligining Hindiston jamiyatiga ko‘rsatgan ta‘siri, diniy bag‘rikenglik va madaniy uyg‘unlik jarayonlarini chuqur ilmiy tahlil qilgan<sup>29</sup>. L. Sharma saroydagi marosimlar, saroy ahlining kundalik hayoti, kiyinish madaniyati, “xilat”<sup>\*</sup> marosimi va odob-axloq qoidalari batafsil tasvirlangan<sup>30</sup>. S. Deyl Bobur faoliyatini bog‘dorchilik, me‘morchilik, tabiatda go‘zallik yaratish, san‘at va adabiyot orqali o‘z hukmdorlik obrazini shakllantirish jarayonlari orqali o‘rganadi<sup>31</sup>. A. Shimmel xonim Boburiylar davlatida saroy hayoti, madaniy qadriyatlari, diniy bag‘rikengligi va san‘atidagi yuksak didni yoritgan<sup>32</sup>. M. Fisher tadqiqotida millatlararo nikohlar (Boburning yusufzayi afg‘on urug‘idan bo‘lmish Bibi Muborikani nikohiga olishi), urf-odatlar, viloyatlardagi xalq hayoti, diniy bag‘rikenglik o‘rin olgan<sup>33</sup>.

Tarixiy tadqiqotlarni F. Berne<sup>34</sup>, P. Chovudhari, R. Misra<sup>35</sup>, M. Sviyetoxovskiy<sup>36</sup>, D. Kolliyer<sup>37</sup>, A. Maldahiyar<sup>38</sup>, E. Mano<sup>39</sup> kabi olimlar

---

<sup>26</sup> *Fransiyada*: Pavet de Courteille. A. Dictionnaire Turk-Oriental. – Parij, 1870. – 562-pg; Bacque-Grammont J. L. Le livre de Babur. – Parij, 1980. – 477-pg. va b.; *Angliyada*: King L., Leyden J., Erskine W. Memoirs of Zahir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan. – London, annotated and revised ed. by L. King, 2 Vols, Milford, 1921– 443-pg; Babur-Nama (Memoirs of Babur). Translated from the original Turki text by Annete S. Beveridge. – Lahore: Sang-e meel, 1979 – 528-pg; Lane-Poole. Babar. – Oxford, 1899. – 601-pg. va b.; *Amerikada*: Thackston W., Baburname. Chaghatay Turkish Text with Abdul-Rahim Khankhanan's Persian Translation. – 3 Vols. – Cambridge: Mass, 1993. – 459 pg.; *Rossiyada*: Благова Г. Академик Самойлович и изучение литературного наследия Захир-ад-дина Мухаммеда Бабура // Восток. – 1997. – №6. – С. 19-21; Бабура-наме / Пер. М. Салье, издание второе, дораб. Общ. ред-я и доработка Азимджановой С. А. – Ташкент: Гл. ред. энциклопедий, 1993. – 463-стр; *Turkiyada*: Baburnâme Gazi Zahîreddin Muhammed Babur. Doğu türkçesinden çeviren: Reşit Rahmeti Arat. – Ankara: Kabcı Yayinevi, 2005. – 855-s; *Yaponiyada*: Mano Eiji. Babur-nama (Vaqayi) Critical Edition Based on Four Chaghatay Text with introduction and Notes. – Kyoto-Syokado, 1995. – 670-pg. va boshq.

<sup>\*</sup> *Baghbaniyat* – mevali daraxtlar, gullar va manzarali o‘simliklarni ekish, parvarish qilish va yetishtirish bilan bog‘liq bog‘dorchilik amaliyoti.

<sup>27</sup> Erskine W. A History of India Under the Two First Sovereigns of the House of Taimur: Babur and Humayun. Volume I. – London: Longman, 1854. – P. 110 –115.

<sup>28</sup> Habib I. The Agrarian System of Mughal India 1556–1707. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – P. 47–48.

<sup>29</sup> Chandra S. Medieval India: Mughal Empire (1526–1748). – New Delhi: Har-Anand Publications, 2007. – 640-pg.

<sup>\*</sup> *Xilat* – to‘n kiydirish va sovg‘a berish marosimi. Asosan Davlat oldidagi xizmatlari uchun ishonch va mukofot tarzida beriladigan hadya. Asarda to‘n, egarlangan ot, bezatilgan xanjar, qilich kabilardan iborat sovg‘alar berilish lavhalari keldirilgan.

<sup>30</sup> Шарма Л. Бобурийлар салтанати. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 34–37.

<sup>31</sup> Dale S. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). – Leiden: Brill, 2004. – 520-pg.

<sup>32</sup> Schimmel A. The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture. – London, 2005. – 352-pg.

<sup>33</sup> Fisher M. Short History of the Mughal Empire. – London: Tauris, 2016. – 304-pg.

<sup>34</sup> Bernier F. Travels in the Mughal Empire (1656–1668). – Oxford: Oxford Press, 1934. – 344-pg.

<sup>35</sup> Misra R. Women in Mughal India. – Delhi: Munshiram Manoharlal, 1967. – 256-pg.

<sup>36</sup> Swietochowski M., Welch S., Schimmel A., Thackston W. The Emperor’s Album. – New York. Metropolitan Museum of Art, 1987. – 192-pg

<sup>37</sup> Collier D. The Mughal Empire their India. – New Delhi: Hay house India, 2016. – 400-pg.

amalga oshirganlar. Xususan, yapon olimi Eyji Mano “Boburnoma”ning tanqidiy-tahlilini amalga oshirgan olim sifatida e’tirof etiladi<sup>40</sup>.

Xullas mavzu tarixshunosligi tahlili shuni ko’rsatadiki, sovet davridagi mafkuraviy yondashuvlar “Boburnoma”ning o’rganilish imkoniyatlarini cheklab qo’ygan. Tadqiqotlar asosan badiiy-ijodiy jihatlarga yo’naltirilgan bo’lib, tarixiy nuqtayi nazardan tahlil yetarli darajada rivojlanmagan. Mustaqillik yillarida esa asarning turli sohalar bo’yicha tadqiqi jonlandi, xususan, Boburning falsafiy, diniy, tarix va tabiatga oid qarashlari keng o’rganila boshlandi. Xorijiy tadqiqotlarda esa Zahiriddin Muhammad Bobur davlat arbobi va sulola asoschisi sifatida, “Boburnoma” esa jahon miqyosidagi muhim tarixiy-memuar asar sifatida tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boburnoma”da etnik tarix, tabiat va xo’jalik hayot bilan bog’liq etnografik materiallar**” deb nomlanadi. Mazkur bobning **“Etnik tarix va toponimlar tavsifi”** nomli birinchi qismida Turonning o’rta chog’da yashagan etnonimlar, xalqlar joylashgan oykonimlar\*, etnotoponimlar\*, antroponimlar\*, etnooronimlar\* manzillarining tasnifi keltirilgan. Asarda turkiy etnonimlar – *turkiy*<sup>41</sup>, *sort*<sup>42</sup>, *chakrak*<sup>43</sup>, *arg’un*<sup>44</sup>, *barlos*<sup>45</sup>, *bekchik*<sup>46</sup>, *qavchin*<sup>47</sup>, *mang’it*<sup>48</sup>, *itarchi*<sup>49</sup>, *bahrin*<sup>50</sup>, *qarluq*<sup>51</sup>, *dug’lat*<sup>52</sup>, *jaloyir*<sup>53</sup>, *qipchoq*<sup>54</sup>, *ming*<sup>55</sup>, *uyg’ur-majam*<sup>56</sup>, *tutchi*<sup>57</sup> kabilarni keltirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Farg’onada yashagan asosiy etnik guruhlarni turklar va sortlarga bo’lgan. Uning ta’rifiga ko’ra, turklar, ya’ni turkiy tilda so’zlashuvchi aholi bo’lib, ular asosan, Farg’ona vodiysining sharqiy qismini egallagan. Sortlar esa aksincha, g’arbiy Farg’onada yashagan va aksari forsiy tilda

---

<sup>38</sup> Maldahiyar A. Babur King of chessboard. – New Delhi: Vintage, 2024. – 480-pg.

<sup>39</sup> Mano E. Babur-Nama. (Vaqai), Concordance and classified Indexes. – Kyoto: Kyoto University Press, 1996. – 455-pg.

<sup>40</sup> Mano E. Babur-nama (Vaqayi) Critical Edition Based on Four Chaghatay Text with introduction and Notes. – Kyoto-Syokado, 1995. – 670-pg.

\* *Oykonimlar* – ma’lum bir aholi punkti, ya’ni shahar, qishloq, mahalla yoki manzilgoh nomlarini bildiruvchi toponimlar.

\* *Etnotoponimlar* – ma’lum bir xalq, qabila yoki etnik guruh nomidan kelib chiqqan geografik nomlar.

\* *Antroponimlar* – shaxs nomlari, ya’ni odamlarning ism-sharifi, laqabi yoki taxalluslarini ifodalovchi onomastik birliklar.

\* *Etnooronimlar* – muayyan xalq yoki etnos nomi bilan bog’liq tog’, tepa, qir kabi relyef shakllarining nomlari.

<sup>41</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 34, 44, 59, 203, 212.

<sup>42</sup> Yuqoridagi manba... – B. 35, 87, 109.

<sup>43</sup> Yuqoridagi manba... – B. 51, 68.

<sup>44</sup> Yuqoridagi manba... – B. 32, 44, 46, 50, 70, 76, 77, 94, 105, 125, 130, 135, 156.

<sup>45</sup> Yuqoridagi manba... – B. 65, 72, 76, 77, 83, 100, 105, 132, 133, 134, 149, 157, 177, 190.

<sup>46</sup> Yuqoridagi manba... – B. 82, 89, 92, 94.

<sup>47</sup> Yuqoridagi manba... – B. 4, 41, 64, 84, 149, 264.

<sup>48</sup> Yuqoridagi manba... – B. 68.

<sup>49</sup> Yuqoridagi manba... – B. 91.

<sup>50</sup> Yuqoridagi manba... – B. 55.

<sup>51</sup> Yuqoridagi manba... – B. 168.

<sup>52</sup> Yuqoridagi manba... – B. 43.

<sup>53</sup> Yuqoridagi manba... – B. 64.

<sup>54</sup> Yuqoridagi manba... – B. 49.

<sup>55</sup> Yuqoridagi manba... – B. 64.

<sup>56</sup> Yuqoridagi manba... – B. 74.

<sup>57</sup> Yuqoridagi manba... – B. 42.

so‘zlashgan<sup>58</sup>. Tadqiqotda turk, sort, chig‘atoy, afg‘on, hind kabi etnonimlar bilan birgalikda turkiy urug‘lar tahlili qayd etilgan.

“Boburnoma”da ko‘p hollarda bevosita turkiy urug‘ haqida emas, balki shu urug‘ vakili bo‘lgan kishilar to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Jumladan, Bobur o‘z asarida ayrim shaxslarni tilga oladi, masalan: “*Ali Mazidbek qavchin urug‘idan kelib chiqqan*”<sup>59</sup>; “*Vays Log‘ari – samarqandlik, tutchi urug‘idan*”<sup>60</sup>; “*Ibrohim Soru – ming urug‘idan*”<sup>61</sup>. Bundan tashqari, urug‘ nomlari shaxsiy ismlarga qo‘shilib ishlatilgan. Masalan: *Shayx Abdulloh barlos, Ayyub bekchik, Hojiqozi mang‘it, Qosim eshikog‘a jaloyir* va boshqalar. Bu esa, turkiy xalqlar urug‘ kelib chiqishiga katta ahamiyat berganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari kishilar ismlariga urug‘ nomini qo‘shib atalishi bu nasab va siyosiy mansublikni aniqlovchi ko‘rsatkich (identifikator) vazifasini bajarganligini anglatadi. Asarda uchraydigan etnik tarix bilan bog‘liq qismlar Bobur yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, hududiy bo‘linishlar va turli xalqlarning o‘zaro aloqalarini tasvirlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

“Boburnoma”da uchraydigan joy nomlari geografik joylashuvni aniqlash, o‘sha davr ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti va etnik tuzilmasi haqida chuqur tasavvur beradi. Chunonchi, hududlarning nomlanishiga doir muhim ma’lumotlar, xususan, Kandibodom – “*bodom shahri*”<sup>62</sup>; Shahrizabz shahri – “*yashil, ko‘kalamzor shahar*”<sup>63</sup>; Qarshi esa – “*go‘rxona*”<sup>64</sup> ma’nosida ekanligini qayd etilgan. Muallif joy nomini faqat geografik obyekt sifatida emas, balki xalq orasida bo‘lib o‘tgan voqea bilan bog‘laydi. Bu yondashuv etno tafakkur va og‘zaki tarix an‘analariga asoslangan: “*Hamisha bu dashtga yel borur. ...Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay, “Ho, darvesh”, – “Ho darvesh”, deya halok bo‘lubturlar*”<sup>65</sup>. Muallif bu lavhada o‘z zamondoshlari ongida shakllangan xalq og‘zaki tarix etimologiyasini yozib qoldirgan. Bu esa toponimning atalish tarixiy ildizi, o‘sha davrdagi ijtimoiy ong, diniy tasavvur (darveshlar obrazi), iqlim va tabiatga doir tasavvurlarni ham ochib beradi.

Mazkur bobning “**Tabiat va o‘simlik olamiga oid ma’lumotlar**” deb nomlangan ikkinchi qismida “Boburnoma” asarida qayd etilgan 15 – 16-yuzyillikdagi Turon, Afg‘on diyori va Hindistondagi viloyat, shahar hamda qishloqlar jug‘rofiyasi, tabiat va nabodot olami haqidagi ma’lumotlar tahlil etilgan.

Asarda kishilarning tabiat haqidagi tasavvurlari turli lavhalar orqali keltirilib, xususan, Turonning “havoli”, “oshlig‘i mo‘l” tasvirlangan tabiati dunyo olimlarini o‘ziga tortgan. “Boburnoma” o‘ziga xos ekobotanik manba bo‘lganligi bois aynan uning Farg‘ona qismi tabiatiga oid lavhalari 1705-yilda niderland olimi Vitsen

<sup>58</sup> Азимджанова С. Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 64.

<sup>59</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 41.

<sup>60</sup> Yuqoridagi manba... – В. 42.

<sup>61</sup> Yuqoridagi manba... – В. 64.

<sup>62</sup> Yuqoridagi manba... – В. 36.

<sup>63</sup> Yuqoridagi manba... – В. 61; Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 156; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б. 217.

<sup>64</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 61.

<sup>65</sup> Yuqoridagi manba... – В. 36.

tomonidan jahonda birinchi bo‘lib xorijiy tilga tarjima qilingan<sup>66</sup>. Chunki, aholi gavjum hudud, suv havzalari, o‘rmon, dalalar va cho‘llar bilan birgalikda bu hududda yashovchi hayvonlar – qirg‘ovul, bedana, bug‘u-maral, to‘ng‘izlar ovlanganligi haqidagi ekomuhit lavhalari yevropaliklarni taajjublantirgan. Qolaversa, ushbu asar zamonaviy ekologik antropologiya fani\* nuqtayi nazaridan ham kishilik jamiyati va tabiat o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatishda yorqin namunasi sifatida Turon tabiati o‘ziga xos ekomadaniyat markazi bo‘lganligi anglatadi.

“Boburnoma”da qayd etilgan o‘simliklarni kishilarning hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda 4 guruh – 1) *marosimiy – ramziy*; 2) *xo‘jalikka oid*; 3) *xalq tabobatiga doir*; 4) *estetik va bezak o‘simliklariga bo‘lib tahlil* qilindi.

*Birinchi guruh*: marosimiy – ramziyga *chinor, balut (eman), arg‘uvon, xurmo, lola, qizil gul (lolaqizg‘aldoq) sumbul, uzum va qovun* kabi o‘simliklar kiritilgan. *Ikkinchi guruh*: xo‘jalik ekinlari asarda “oshlig” sifatida qayd etilgan. Mazkur guruh o‘simliklariga *bug‘doy, sholi, arpa, qovun, tarvuz, bodring, nayshakar (shakarqamish), sabzi va boshqa xo‘jalik ekinlarini tahlili* keltirilgan. Yana xo‘jalikda qo‘llangan o‘simliklar, xususan, o‘tin sifatida qo‘llangan – *balut, qarqand, bodomcha, xanjak*<sup>67</sup>; otga yaxshi egulik sifatida *tut va qayrag‘och bargi, butaka, xovit*<sup>68</sup> qayd etilgan. *Uchinchi guruh*: tabobatga oid o‘simliklar sifatida esa “yabruh us sanam”<sup>69</sup> (ayiq o‘ti)ni – mehriyoh; qulonquyruq, shiboq<sup>70</sup>, ma‘jun<sup>71</sup>, afyun<sup>72</sup> – kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi; “fatila” (paxta)ni kuydirish orqali qonni to‘xtatish<sup>73</sup>; murchni qaynatib, suvini jarohatni zararsizlantirish (dizenfeksiya) uchun foydalanganligi kabi lavhalar tahlili berilgan. *To‘rtinchi guruhga*: *yosuman\**, *nilufar, atirgul, lola, qizil gul, binafsha* kabi estetik va bezak o‘simliklarining ahamiyati, qo‘llanishi bilan bog‘liq elshunoslik jihatlari asoslab berilgan.

Gullar ellararo aloqalarda o‘zaro madaniyat tashuvchisi sifatida ham ahamiyatli bo‘lib, xususan, xushbo‘y atirgulni Hindistonga aynan Bobur olib kirgan<sup>74</sup>. Gullar va yovvoyi o‘tlarning kishining ichki dunyosi va estetik qarashlarini o‘zida aks etib, tabiatni sevish, asrash va yaratuvchilik qobiliyatlarini namoyon qilish bilan bog‘liq chaqiruvlar beradi. Chunonchi, tabiat – o‘simlik – odam munosabatlarda kishilikning birlamchi bo‘lishi muhimligi ochib beriladi. Dorivor o‘simliklar lavhalari orqali kishi va jonivorlar kasalliklari uchun barcha davo va malhamlar shu tabiatning o‘zida mujassam etganligi e’tirof etiladi.

---

<sup>66</sup> Witsen N. Noord en Oost Tartarye, ofte bondig ontwerp van eenige dier landen en volke. – Amsterdam: François Halma, 1705. – 649-pg.

\* *Ekologik antropologiya* – insonlarning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalarini, ya’ni inson jamiyatlari va ularning yashash ekologiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan ilmiy yo‘nalishdir. U madaniyat, iqtisodiyot, texnologiya va atrof-muhit o‘zaro qanday ta’sir qilishi bilan shug‘ullanadi.

<sup>67</sup> Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 115.

<sup>68</sup> Yuqoridagi manba... – B. 85.

<sup>69</sup> Yuqoridagi manba... – B. 32.

<sup>70</sup> Yuqoridagi manba... – B. 116.

<sup>71</sup> Yuqoridagi manba... – B. 37, 171.

<sup>72</sup> Yuqoridagi manba... – B. 238.

<sup>73</sup> Yuqoridagi manba... – B. 94.

\* *Yosuman* – zaytundoshlar oilasiga kiruvchi gul turi.

<sup>74</sup> Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. – Тошкент: Encyclopedia world, 2023. – Б. 12.

Asarda Turon, Kobul va Hindistonda tarqalgan 150 dan ziyod o‘simlikning nomi, ta’rifi, tarqalishi va yana o‘zbekcha, arabcha va hindcha nomlari bergan. Bundan tashqari, asarda hayvonlarning 180 ga yaqin turi qayd etilgan bo‘lib, ularning ayrimlari hozirgi kunda ham mamlakamizda mavjud.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Xo‘jalik hayoti bilan bog‘liq materiallar”** deb nomlanib, “Boburnoma”da qayd etilgan o‘z davrining xo‘jalik hayotiga oid elshunoslik ma’lumotlar tahliliga bag‘ishlanadi. Asarda aks etgan xo‘jalik tartiblarni quyidagi to‘rt asosiy yo‘nalish – *ekin-tikinchiilik an‘analari, chorvachilikning holati, hunarmandchilik faoliyati; savdo an‘analari*. “Boburnoma”da ekin-tikinchiilikda dastlab, lalmi erlarda ekinlarni parvarishlash bo‘yicha lavhalar tahlil qilingan. Unga ko‘ra Agra, Chandvar va Biolada maxsus dalv\* idishlar vositasida quduqdan suv chiqarib olingan va zarur bo‘lgan vaqtlarda ekinlarga suv berilgan<sup>75</sup>. Suv manbalari kam bo‘lishiga qaramay, Qarshida qovun va boshqa ekinlar<sup>76</sup>ning yaxshi hosil berishi ushbu hududdagi lalmi dehqonchilik an‘analari va mahalliy mirishkorlik yutuqlarini aks ettiradi. G‘azna eli har yili ekin etishtirish uchun yangi tuproq qavati solinib, ro‘yan\* o‘simligi parvarishlangan<sup>77</sup>. Suvsiz hududlarda yomg‘ir chaqirish (yada) marosimlari o‘tkazilgan. “Boburnoma”da yada marosimlari asosiy kishisi – yadachilar haqida ma’lumot beradi: *“Xojago Mullo Sadrkim... yadachilig‘ni ham bilur edi”*. Toshidan faqatgina ekin-tikinchiilik maqsadida emas, balki jang paytida ham foydalanilgan. Ekinlarga yomg‘ir so‘ralgan lavhada esa: *“To‘xta Bo‘g‘a Sulton yada qilg‘on ekantur. Tun el qupub, yomg‘ur yog‘a kirishti. Tavr havoe bo‘ldi”*<sup>78</sup>. O‘sha davr boshqa manbalarida yada toshning kuchini oshirish yo‘llari, yomg‘ir haddan ortiq ko‘p yoqqanda, uni yada toshi yordamida to‘xtatish yo‘llari haqida ham ma’lumotlar berilgan<sup>79</sup>.

Asarda Farg‘ona viloyati hamda Andijon ta’rifida bir xil: *“...oshlig‘ va mevasi farovon”* deya ma’lumot keltirilishi ushbu hudud xo‘jaligi aynan sug‘orma dehqonchilikka mos o‘lka sifatida gavdalanadi. *“Oshlig‘”* deganda sabzavot va donli ekinlar tushunilsa, *“mevasi farovon”*dan bog‘dorchilik ham xo‘jalik asosini tashkil etganligi tushuniladi. Sug‘orma dehqonchilik mahsulotlaridan sholi, bug‘doy, bodring, sabzi, qovun, tarvuz, uzumni etishtirish bilan bog‘liq lavhalar keltiriladi. Xususan, uzumdan tayyorlangan “arra toshi” va “suhon toshi” deb atalgan chog‘ir\*<sup>80</sup>larning xususiyatlarini ta’riflaydi<sup>80</sup>. Chorvachilikda qo‘y, echki, qoramol, ot, tuya kabi hayvonlarning o‘rni bilan bir qatorda Farg‘ona vodiysi tog‘larida yashovchi chakrak elining sigir o‘riga qo‘tos boqqanligi<sup>81</sup>, Hindistonda

\* Dalv – suv tashish va quyish uchun mo‘ljallangan idish.

<sup>75</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 218.

<sup>76</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 61.

\* Ro‘yan – bo‘yi 1,5–2 metr gacha yetuvchi ildizpoyali, ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Xo‘jalikda bo‘yoq olish maqsadida yetishtirilgan.

<sup>77</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 113.

<sup>78</sup> Yuqoridagi manba... – B. 252.

<sup>79</sup> الاسرار في مناقب الاخيار. ШҚФ. Қўлёзма саноғи 2372. – Б. 210<sup>b</sup>–211<sup>a</sup>.

\* Chog‘ir – uzumdan tayyorlanadigan mast qiluvchi ichimlik.

<sup>80</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 110.

<sup>81</sup> Yuqoridagi manba... – B. 51.

esa fillarning xo‘jalikdagi ahamiyati ochib berilgan<sup>82</sup>. Chorvaning xalq o‘yinlari “chavandozlik”, “qovoq o‘yini”, “chavg‘on”, “otdan sakrash”, “tuya poygasi”, “qo‘chqor urushtirish”da foydalanilgan. Marosimiy ahamiyati o‘laroq ehson, peshkash (tortiq) qilish, qurbonlik keltirishda qo‘llangan. Hunarmandchilik va savdo an‘analari haqida muallif Samarqand hunarmandlar bozori haqida yozarkan, ular orasida aniq kasbiy ajratish mavjudligini ta‘kidlaydi: “*Har hirfagar\*ning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emasdur, tavr rasmidur*”<sup>83</sup>. Bunday holat ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kasblarning ixtisoslashganligi va shaharsozlik madaniyatida hunarmandlar alohida kasb uyushmalari yoki “mahallalari”da joylashganini ko‘rsatadi. Bunday kasb egalari o‘rtasidagi raqobat, xizmat sifati va ijtimoiy nufuz masalalarini ham belgilaganligini anglatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand, Kobul va Qandahor kabi shaharlarni Xuroson hamda Hindiston o‘rtasidagi asosiy markazlar sifatida tasvirlaydi<sup>84</sup>. Ushbu shaharlar, ayniqsa, Samarqand va Kobul “*savdoxonasi bisyor yaxshi bo‘lur*”, ya‘ni bozori serqatnov va boy markaz hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”da keltirilgan etnonim va toponimlar orqali tadqiqot davrining geografik tasviri va madaniy-hududiy manzarasi o‘laroq, ularning etimologiyasi, u erda yashovchi aholining odatlari tadqiq qilindi. Asarda qayd etilgan o‘simliklarni marosimiy, xo‘jalik, tabobat va bezaklardagi ahamiyati asoslandi. Xususan, gullar, mevalar va dori-darmon o‘simliklari orqali Bobur tasvirlagan makonlardagi ekologik muhit, iqlim sharoiti hamda aholining kundalik hayot tarzida tutgan o‘rni hamda ularning elshunoslik ahamiyatini ko‘rsatib berildi. Shuningdek, xo‘jalik hayotiga oid ma‘lumotlar orqali Bobur davridagi aholining kunlik turmushi, xo‘jalikning sug‘orish tizimlari, hosil turlari, hunarmandchilik mahsulotlari va savdo yo‘llariga oid lavhalar o‘rta chog‘ iqtisodiy manzarasini yoritib berilgan.

Uchinchi bob “**Asarda madaniyat va qadriyatlar talqini**” deb nomlanib, uning birinchi qismi “**Boburnoma**”da **oilaviy munosabatlar talqini**”ga bag‘ishlanadi. Mazkur qismi *oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari va tarbiya, oilaviy an‘analari, mehmondo‘stlik an‘analari* kabi guruhlariga bo‘lib tahlil etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur farzand tarbiyasi va ta‘limiga alohida e‘tibor qaratgan. U farzandlarini ilm-fan, she‘riyat va san‘atga qiziqtirish, ularni odob-axloq va davlat boshqaruvi sirlariga o‘rgatishni o‘zining otalik va podshohlik burchi deb bilgan<sup>85</sup>. Boburning Humoyun va Komron Mirzolarga yo‘llagan maktublari ta‘lim, ma‘rifat, odob va davlatchilik masalalariga bag‘ishlanib, unda farzandlarga mehr va tanbeh uyg‘un tarzda aks etgan<sup>86</sup>. Shu bilan birga, asarda bola tarbiyasining an‘anaviy qoidalari, ya‘ni bolaga ta‘lim berishni 4 yoshidan boshlash<sup>87</sup>, ustozga topshirish, diniy va dunyoviy fanlarni o‘rgatish kabi odatlar ham qayd etiladi. Bobur farzandlarining ilmi, ma‘naviyatli bo‘lib yetishishi uchun

<sup>82</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 198.

\* *Hirfagar* – savdogar.

<sup>83</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 60.

<sup>84</sup> Yuqoridagi manba... – B. 108.

<sup>85</sup> Neru J. Hindistonning kashf etilishi... – B. 57.

<sup>86</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 243; Комрон Мирзо. Девон. – Тошкент, 1993. – Б. 6.

<sup>87</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 144.

kitob yozgan, ularni o‘qish-o‘rganishga rag‘batlantirgan, xat va inshoda ravonlikka chorlagan<sup>88</sup>. Natijada, uning farzandlari va avlodlari shoir, tarixchi, olim sifatida ilm va madaniyat rivojiga salmoqli hissa qo‘shdilar<sup>89</sup>. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asari Sharqdagi birinchi ayol tarixchisi namunasi sifatida yuksak ahamiyatga ega.

Oilaviy an‘analar – *farzand tug‘ilishi, nikoh, to‘y va motam* kabi marosimlariga ajratilgan holda tahlil etilgan. Asarda xomiladorlik davridagi tug‘ilajak bolaning jinsini aniqlash bo‘yicha odat<sup>90</sup>, chaqaloqqa ism qo‘yish kabi lavhalar keltirilgan. Boburning Hindistonga harbiy yurishi xayrli kechishi oldidan tug‘ilgan o‘gil farzandiga “Hindol” ismini qo‘ygan. Bu odat o‘zbek xalqida qadimdan mavjud bo‘lib, chaqaloqqa muvaffaqiyatli tanlangan va berilgan nom uning taqdirini o‘zida mujassam etadi deb ishonilgan<sup>91</sup>. Nikoh va to‘y bilan bog‘liq qalinliq (beshikkerti)\*, to‘yda kelin va kuyov ustidan sochqi sochish\*, to‘y, “yuzochdi”<sup>\*</sup> marosimlari hamda ularni o‘tkazish lavhalari orqali o‘rta chog‘dagi o‘zbek tutumlari bugunimiz bilan bog‘langan holda ochib beriladi. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham to‘ydan so‘ng o‘tkaziladigan “yuzochdi” marosimi qozoqlarda – “betashar”, qirg‘izlarda – “bet achuu”, turkmanlarda – “yüz achma”, tojiklarda – “ruyushkunon”(rukshon) deb ataladi.

Motam odatlarida dafn qilish, aza, qora chirmash\*, idda saqlash\*, marhum haqiga duo va ehson qilish, qabr ziyorati kabi odat lavhalari o‘rganilgan.

Mehmondo‘stlik bilan bog‘liq lavha tahlillarida Boburning mehmonlarni qabul qilishi – xonlar, hukmdorlar va yuqori martabali mansabdorlarni kutib olish va kuzatish marosimlari keltirilgan. Jumladan, mehmonni qarshilashning davrga xos odatlari haqida: “... *Kichik xon ro‘baro‘din keladur edi...Ko‘rushur yerga yetishib, to‘qquz qatla yukunub kelib ko‘rushti*”<sup>92</sup>. Lavhada muallif tog‘alari garchi o‘zidan yoshi katta va xon bo‘lsa-da, mehmonning hurmati barchasidan ustunligini ta‘kidlanadi. Bundan tashqari asardagi mehmondo‘stlik an‘analari o‘sha davr va keyingi Boburiylar davridagi lavhalarga taqqoslangan. Mehmon kutishning Turonga xos an‘anasi keyingi boburiylar davrida ham davom etgan. Xususan, Akbarshoh davrida turli millat, din va madaniyat vakillarini o‘z saroyida samimiy qabul qilgan. Uning topshirig‘i bilan Agra va Fatihpur Sekri kabi shaharlarda “Mehmonnomayi xos” barpo etilgan<sup>93</sup>. Bu yerda kelgan mehmonlar uchun maxsus

<sup>88</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 243.

<sup>89</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 50.

<sup>90</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 238.

<sup>91</sup> Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари... – Б. 77.

\* *Qalinliq* (beshikkerti) – qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash maqsadida bolani boshqa oilaning bolasi bilan “kelajakda kuyov-kelin bo‘ladi” degan niyatda unashtirib qo‘yish odati.

\* *Sochqi* – to‘y marosimlarida kelin-kuyovning kelgusi nikoh davrida baxtli va boy bo‘lsin deya, oltin hamda kumushlardan iborat sochqilar sochilgan. Sochqilar daraxt mevalari – bodom, anor donasi, pista shakliga keltirilganligida ramziy ma‘no bor: ular farzand, oilaga ishoradir.

\* *Yuzochdi* – to‘ydan keyin kelinning yuzidagi ramziy matoni olish odati. Marosimda ma‘lum rasmlar bajarilgandan so‘ng kelinni yuzini yosh bolakay (o‘g‘il bola, bunda “birinchi farzandi o‘g‘il bo‘lsin” deya) maxsus mevali daraxt shoxlaridan tayyorlangan cho‘p bilan kelinning yuzidagi yopinchiqni olib tashlaydi.

\* *Qora chirmash* – motam ramzi bo‘lib, bunda odatga ko‘ra qora libos kiyilgan.

\* *Idda saqlash* – bu ayol eridan ajrashgandan yoki eri vafot etgandan so‘ng turmushga chiqishdan avval kutushi shart bo‘lgan muddat. Eri vafot etgan ayol – 4 oy 10 kun idda saqlaydi (agar homilador bo‘lsa, tug‘ruqqacha).

<sup>92</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 90.

<sup>93</sup> Abul Fazl. Ain-i-Akbari. Vol. 1 / translate by H. Blochmann. – Calcutta: The Asiatic Society, 1873. – P. 98.

xonalar va hovlilar ajratilib, har bir mehmon tantanali kutib olinib, ularning maqomiga mos ravishda sovg‘alar berilgan, saroy oshpazlari esa hind, fors hamda turkiy taomlaridan iborat boy dasturxonlar tayyorlangan<sup>94</sup>. Masalan, Jahongir davrida Buyuk Britaniya elchisi Tomas Ro saroyda bo‘lgan va o‘z esdaliklarida Boburiylar saroyidagi dabdaba, tartib-intizom hamda mehmondo‘stlikka yuqori baho bergan<sup>95</sup>.

Uchinchi bobning **“Milliy kiyim va taqinchoqlar bayoni”** deb nomlangan ikkinchi qismida Turon, afg‘on va hindlarga xos kiyimlar tahlil qilingan. “Boburnoma”da o‘z davrida ommalashgan kiyim-kechaklarga *fo‘ta* (salla o‘rnida ishlatiladigan mato, belbog‘)<sup>96</sup>, *bo‘rk*<sup>97</sup> (qo‘zi terisidan qilingan mo‘g‘ulcha qalpoq), *dubulg‘a-bo‘rk*<sup>98</sup> (kanop tolasidan tikilgan qalpoq), *joma* (keng, uzun ustki kiyim), *choriq*<sup>99</sup> (poyabzal), *taqband* (belbog‘), *jiba*<sup>100</sup> (yengsiz uzun kiyim, asarda o‘q o‘tkazmaydigan maxsus kiyim sifatida qo‘llangan), *to‘n*, *nimcha* (kamzul), *toqi* (erkaklar bosh kiyimi), *shalvar* (pastki kiyim), *lachak* (ayollar bosh kiyimi) kabi liboslar kiradi. Bundan tashqari, erkaklar kamarlari, harbiy kiyimlar, ayollar taqinchoqlari haqidagi lavhalar tahlil qilingan. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistondagi hukmronligi davrida Turon xalqlariga xos kiyinish uslubi davom etgan. Boburiylar davrida hind kiyim-kechaklar uslubida turkiy va forscha madaniyatning ta‘siri katta bo‘lgan<sup>101</sup>. Temuriylar davri liboslari Hindiston issiq iqlimiga xos ravishda madaniy evrilishlarga uchradi. Abul Fazl Allomiyning ta‘kidlashicha, Boburiylar davri kiyimlari bilan bir qatorda yangi kiyim turlari va nomlari paydo bo‘ldi. Jumladan, *takauchiya\**, *dutahi\**, *shahaji\**, *so‘zani\**, *qalami\**, yangi *qoba\** kabilar shular jumlasidandir<sup>102</sup>. Xususan, Akbar “*takauchiya*” deb ataluvchi, yumaloq etakli va o‘ng tomondan bog‘lanadigan ko‘ylak kiygan<sup>103</sup>.

Tadqiqotda hindlarning Boburiylar oilasi kiyinish uslublariga taqlid qilgan holda ularning kiyinishdagi keyingi o‘zgarishlar qayd etilgan. Jumladan, “Boburnoma”dagi kiyimlar bilan bog‘liq xilat marosimi, kiyimlarning vazifaviy, ramziy xususiyatlari hamda taqinchoqlar haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Uchinchi bobni yakunlovchi qismi **“Bayramlar, xalq sayillari va milliy o‘yinlar tavsifi”** deb nomlanib, xalq an‘anasining bir qismi hisoblangan

<sup>94</sup> Abul Fazl. Ain-i-Akbari. Vol. 1 / translate by H. Blochmann... – P. 98.

<sup>95</sup> Roe T. The Embassy of, to the court of Great Mughals (1615–1619). – London, 1926. – P. 12.

<sup>96</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 134, 182.

<sup>97</sup> Yuqoridagi manba... – B. 26, 37, 258.

<sup>98</sup> Yuqoridagi manba... – B. 72.

<sup>99</sup> Yuqoridagi manba... – B. 304, 527.

<sup>100</sup> Yuqoridagi manba... – B. 150, 156, 161, 162, 167.

<sup>101</sup> Goswamy B. Indian Costumes, in the collection of the Calico Museum of Textiles. – Ahmadabad, 1993. – P. 14.

\* *Takauchiya* – paxta matosidan ishlangan, uzun yumaloq etakli libos.

\* *Dutahi* – ichki astarli qalin ko‘ylak.

\* *Shahajida* – qirollik tikuvlari bilan bezatilgan ko‘ylak bo‘lib, har bir girxida oltmishdan ortiq naqsh bilan tikilgan.

\* *So‘zani* – ipakdan tayyorlangan naqshli libos.

\* *Qalami* – paxtadan tayyorlangan uzunligi oyoqning tizza qismigacha tushadigan libos.

\* *Qoba* – qalin matodan ishlangan ko‘ylak, gadar esa qobadan kengroq va uzunroq bo‘lib, mo‘ynali libos o‘rnida qo‘llanilgan

<sup>102</sup> Abul Fazl. Ain-i-Akbari. Vol. 1 / translate by H. Blochmann... – P. 97.

<sup>103</sup> Dhar S. Costumes of Indian and Pakistan: A Historical and Cultural Study. – Bombay, 1969. – P. 12.

bayramlar, sayillar va milliy o'yinlar xalqning ijtimoiy hayotidagi muhim voqealar sifatida ko'rsatilganligi asar orqali tahlil qilingan.

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o'rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o'ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo'ladi<sup>104</sup>. "Boburnoma"da Navro'z haqida ham ma'lumot berilib, ushbu bayramning ahamiyati va xalq orasida qanday nishonlanishi to'g'risida muhim faktlar bayon qilingan. Asarda "*iyd namozini Go'mal rudining yoqasida o'taldi. Navro'z ul iydqa yovuq kelib edi*"<sup>105</sup>, deya muallif Hayit bilan Navro'zning teng kunga kelganligini yaxshilik alomati sifatida alohida ta'kidlaydi. Bu xayrli yaqinlik o'zi va safardagi hamrohlari uchun ham xursandchilikka sabab bo'ladi, she'riy misralar qayd qilgan<sup>106</sup>. Harbiy yurishlar, odatda, bayram tadbirlari yakunlangach amalga oshirilgan bo'lib, xususan, Hindistonga yurish "Navro'z" bayrami nishonlangandan so'ng boshlangan. Boburiylar davlatida Humoyun ko'rsatmasi bilan bayram nishonlash yanada ommaviylashgan, xususan, Navro'zdan keyingi o'n yetti kunni "Humoyun kuni" deb e'lon qilinib, barcha yangi libos kiygan holda bayram keng nishonlangan<sup>107</sup>. Mazkur bayram yilboshi sifatida e'tirof etilib, yangi yilga yangi liboslar bilan kutib olinishi odati bugungi kunda ham o'zbek an'analarida saqlanib qolgan.

Bayramlar bilan birgalikda ijtimoiy hayot bilan bog'liq xalq sayillari ham muhim ahamiyatga ega. Asarda "*Lola sayli*", "*Qovun sayli*" va "*Hazon sayli*" bo'yicha berilgan ma'lumotlar ilmiy tahlil etilgan. Xalq tomonidan amalga oshiriladigan milliy sayillar "Boburnoma" yozilgan davrida ham ijro etilganligi, bu tabiat bilan kishilarni birlashtirgan jarayon ekanligi e'tirof etiladi. Asarda "*...turluq-turluq lolalar ochilur, bir qatla lola anvoyini buyurdumkim sanadilar, o'ttuz to'rt nav lola chiqti...*"<sup>108</sup> deya, bir hududda 33 xil lola ochilishiga urg'u berilib, "Lola sayli" o'laroq, tabiat bilan diydorlashish, kishilarga xursandchilik ulashish kabi insoniylik hislatlari vujudga kelganligi tasvirlangan. Mazkur gul sayillari bugungi kunda ham yurtimizning turli hududlarida o'ziga xos ko'rinishda amalga oshirilib, Xorazmda – "Qizil gul" bayrami, Buxoroda<sup>109</sup> – "Qizil gul sayli" ("Sayli guli surx"); Farg'ona vodiysi<sup>110</sup> va Toshkent vohasida – "Lola sayli", "Lolaqizg'aldoq sayli", Chust, Pop hamda Denov tumanlarida – "Sumbula sayli" va boshqa hududlarda "Boychechak" hamda "Chuchmoma" sayillari o'tkazilmoqda.

Xalq sayillari bilan ijro etiladigan o'yinlar Vatan himoyachilarini saralab olishning o'z davrining o'ziga xos usuli sanalgan. Asarda qayd etilgan xalq o'yinlarini uchta guruhga bo'linib, tahlil qilindi: 1) xalq o'yinlari – *kurash, xo'roz va qo'chqor urushtirish, kabutar uchirish*; 2) harbiy o'yinlar – *chavg'on, zehgirtaroshlik, qovoq, otdan sakrash, hok palla*; 3) aqliy o'yinlar – *shoxmot, shatranj, nard, oshiq*. Mazkur davrda kurash o'yiniga alohida e'tibor berilganligi

<sup>104</sup> Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари... – Б. 8.

<sup>105</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 120.

<sup>106</sup> Yuqoridagi manba... – В. 120.

<sup>107</sup> Гулбаданбегим. Хумоюннома... – Б. 87.

<sup>108</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 152.

<sup>109</sup> Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 22–25.

<sup>110</sup> Хамраев А. Праздник "Красный розы" / Известия АН УзССР. – 1958. – № 66. – С. 72–73.

oydinlashdi, xususan, asarda ko'chmanchilarda kurashchi "bo'ka" deb atalganligi qayd etilgan<sup>111</sup>. Boburiylar davlatida shahzodalarga kurashdan saboq berilgan, jumladan, Jaloliddin Akbar mohir kurashchi bo'lgan<sup>112</sup>. Qadimdan kamondan otish va o'q uzish turkiylar kundalik hayotining ajralmas bir qismi bo'lib<sup>113</sup>, temuriylar davrida ham bu o'yin bilan nafaqat erkaklar, balki ayollar ham shug'illangan. Xususan, malikalar saroyda bo'sh vaqtlarida o'ynaydigan eng muhim o'yinlardan biri kamondan o'q uzish bo'lgan<sup>114</sup>.

Asarda qayd qilingan bayramlar, sayillar va xalq o'yinlari o'zbek xalqining o'rta chog'dagi ma'naviy-madaniy hayotini ko'rsatadi. Sayillar tabiat bilan bir butunlik, er va mehnatni sevish, kishilarni qadrlash kabi xislatlarni o'zida jamlagan bo'lsa, o'yinlarda xalqning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish orqali yurtni himoya qilish va sog'lom turmush tarzi targ'ib qilinadi.

"Boburnoma"da oilaviy munosabatlar marosim va odatlarning o'z ichiga olgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti hamda marosimiy an'analarni aks ettirgan manba hisoblanadi. Asarda tasvirlangan kiyim va taqinchoqlar nafaqat o'tmish kiyinish madaniyati haqida tushuncha beradi, balki bunday jarayonlarni keng elshunoslik nuqtayi nazardan o'rganish imkonini ham taqdim etadi. Mazkur ma'lumotlar orqali o'sha davrga oid kiyinish odatlari qanday ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlar bilan bog'liq bo'lganligini osonroq tushunish mumkin.

## XULOSA

"Boburnoma" asari turkiy xalqlar etnografiyasini o'rganishda muhim etnografik manba sifatida quyidagi **xulosalar**ga kelindi:

1. "Boburnoma" manbashunoslik nuqtayi nazaridan muallif hayoti va davr voqealarini aks ettiruvchi memuar asar sifatida yaratilgan. Shu bilan birga, u keng ijtimoiy-madaniy muhitni yorituvchi tarixiy hujjat maqomiga ega. Asarda turkiy xalqlarning hayot tarzi, etnik tarixi, joy nomlari, xo'jalik faoliyati, moddiy va nomoddiy madaniyatiga oid ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Ushbu ma'lumotlar zamonaviy elshunoslik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy dalillarni taqdim etadi.

2. "Boburnoma"ning o'rganilish tarixi tahlil etilganda, dastlabki tadqiqotlarda asar asosan adabiy va tarixiy yo'nalishda baholangani ko'rinadi. Sovet davri mafkuraviy cheklovlari natijasida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati ko'proq shoir sifatida tadqiq etilgan, 1920–1930-yillarda asarni o'qish taqiqlangan. Mustaqillikdan keyin Boburning hayoti va merosi fanlararo asosda o'rganilib, "Boburnoma" milliy tarix va madaniyatni tahlil qilishda muhim manba sifatida e'tirof etildi. 18-yuzyillikda esa Yevropa (ingliz) olimlari asarni Buyuk Britaniyaning Hindiston va Afg'onistonga oid geosiyosiy manfaatlari doirasida o'rgangani ma'lum. Bunday holat uni sharqshunoslik ilmiy merosi bilan birga, mustamlakachilik siyosiy-iqtisodiy rejalarida ma'lumot manbai sifatida qo'llanilganini anglatadi. Xalqaro izlanishlarda "Boburnoma" xalqlar tarixi va

<sup>111</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 45.

<sup>112</sup> A de la Garza. Mughals at War: Babur, Akbar and the Indian Military Revolution, 1500 – 1605: Doctorate Thesis. – Ohio: The Ohio State University, 2010. – P. 233.

<sup>113</sup> Faruk S. O'guzlar (Turkmenler), Tarihi - Boy Teşkilatı –Destanları, Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı Yayınları. – İstanbul, 2016. – S. 35.

<sup>114</sup> Гулбаданбегим. Хумоюннома... – Б. 51.

Sharq tamadduni jarayonlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega manba sifatida qayd etilgan.

3. "Boburnoma"da turkiy omilning ustuvorligi aniq ko'zga tashlangan bo'lib, undagi turkiy joy nomlari (oykonimlar), qabila va xalq nomlari (etnonimlar), turmush tarzi va xo'jalikka oid ma'lumotlar (dehqonchilik, chorvachilik), etnopsixologik tasvirlar, milliy va diniy o'zlikni anglash, kiyim-kechak madaniyati, marosim va urf-odatlar, ramziy ma'noga ega taqinchoqlar hamda xil'at marosimi haqidagi kuzatuvlar o'sha davr turkiy xalqlarining ma'naviy-madaniy dunyoqarashini keng qamrovda tasvirlab bergan. Ushbu tasvirlar tarixiy etnografiya va zamonaviy toponimika sohalarida tadqiqot olib borish uchun qimmatli ilmiy material hisoblanadi.

4. Asardagi Turon aholisining etnobotanik bilimlari, agrar tajribalari va ekologik qarashlari haqidagi ma'lumotlar tarixiy-etnografik tahlil uchun asosiy manbalardan birini tashkil etadi. Asarda uzum, qovun, anor, olxo'ri kabi mevalarning iqlimga moslashtirilishi va bog'dorchilikda seleksion usullar qo'llanilganligi haqidagi kuzatuvlar jamiyatning tabiat resurslaridan foydalanish madaniyati va agrar innovatsiyalari haqida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Boburning tabiat va o'simlik olamiga oid qaydlari esa xalqlarning atrof-muhit bilan uyg'un hayot kechirish tafakkuri, ekologik madaniyati va turmush tarzining barqarorlikka qaratilgan qirralarini anglashda tahliliy asos sifatida namoyon bo'ladi.

5. "Boburnoma"da keltirilgan xo'jalikka oid ma'lumotlar dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik va savdo-sotiq sohalarining taraqqiyot darajasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar orqali moddiy madaniyatning shakllanish jarayoni hamda jamiyatning iqtisodiy asoslari ilmiy jihatdan ochib beriladi. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi davrida Hindistonda bog'dorchilik alohida xo'jalik tarmog'i sifatida rivojlanib, qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangani asoslanadi.

6. "Boburnoma"dagi oila va oilaviy munosabatlarga oid tasvirlar turli xalqlarning ma'naviy hayoti va ijtimoiy-madaniy tajribalarini chuqur anglash imkonini beradi. Asarda oila jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi sifatida talqin etilib, o'zaro munosabatlarda axloqiy-me'yoriy qadriyatlar ustuvor o'rin tutgani ko'rinadi. Bu holat tarixiy va ma'naviy meros sifatida qimmatlidir. Xususan, "yuz ochdi" marosimining tasviri uning qadimiy milliy an'ana sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Marosimning maqsadi, o'tkazilish tartibi, undagi ishtirokchilar va ramziy vositalar (o'g'il bola – avlod davomiyligi timsoli, meva shoxi – serfarzandlik ramzi) xalqning ma'naviy-moddiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda asoslangan. Bu an'ananing o'zbek xalqi bilan birga qo'shni qardosh xalqlar (qozoq, qirg'iz, turkman, tojik) hayotida ham uzviy tarzda saqlanib qolgani madaniy merosning uzluksizligi va mintaqaviy umumiylikni namoyon etadi. Demak, "Boburnoma" tarixiy hujjat, turkiy xalqlar nomoddiy madaniy merosi va oilaviy munosabatlardagi qadriyatlar davomiyligini yorituvchi muhim manbadir.

7. Kiyim va taqinchoqlarga oid tasvirlar turkiy xalqlarning turmush uslubi, ijtimoiy tuzilishi, milliy o'ziga xosligi haqida ham keng ma'lumot beradi. Turon

xalqlariga xos chorqab, joma, poyjoma, nimcha, lakak va toqi kabi liboslarning ma'naviy-ramziy vazifasi qayd etilgan. Shu bilan birga, Boburiylar davrida ularning Hindiston madaniyatiga ta'siri natijasida mahalliy muhitda takuchiya, dutahi, so'zani, qalami kabi yangi kiyim turlari vujudga kelganligi qayd etilgan. Bunday holat madaniy aloqalar va evrilish jarayonlarini tahlil qilish imkonini ochadi.

8. Turkiy xalqlarning ijtimoiy hayotida bayramlar, xalq sayillari va milliy o'yinlar jamoaviy ongini shakllantirish, birdamlikni mustahkamlash va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishning samarali vositasi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Navro'z, Ramazon, Qurbon, Hosil kabi diniy va mavsumiy bayramlar, shuningdek, lola, suv, uzum, qovun, xazonrezgi sayillari hamda kurash, ot poygasi, chavg'on, lashkar ko'rigi, hayvonlar janglari singari o'yinlar ijtimoiy almashinuv va madaniy muloqot jarayonini ta'minlab kelgan. Ushbu ko'rinishlar o'rta chog' jamiyatida birdamlikni kuchaytirish, tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida kuzatilgan.

Tadqiqot natijasida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Asarning etnik nomlar, urug'lar joylashuvi, odatlari bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borish.

2. O'simliklar va hayvonot olami bilan bog'liq ma'lumotlarga asoslanib, ularning geografik o'ziga xosligi hamda turlari bo'yicha atlas tuzish.

3. Asarda keltirilgan kiyimlar, ularning turlari, madaniyatlararo qorishuv va keyingi evrilishlar bo'yicha maxsus tadqiqot olib borish.

4. Tarixiy asarlar, xususan, "Boburnoma" bilan bog'liq darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda tadqiqotdan olingan ilmiy natijalardan foydalanish, shuningdek, etnografiya yo'nalishlari uchun alohida kurs sifatida o'qishni tashkil etish, mavzu haqida hujjatli hamda badiiy filmlar yaratish.

**SCIENTIFIC COUNCIL NUMBER DSc.02/30.12.2019. Tar.56.01.  
ON AWARDING ACADEMIC DEGREES AT THE INSTITUTE OF  
HISTORY OF THE ACADEMY OF SCIENCES  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

---

**INSTITUTE OF HISTORY**

**DAVRONBEK ZOKHIDJON UGLI OLIMJONOV**

**“BABURNAME” – IS A SIGNIFICANT HISTORICAL-ETHNOGRAPHIC  
SOURCE FOR THE STUDY OF THE ETHNOGRAPHY OF THE TURKIC  
PEOPLES**

**07.00.07 – Ethnography, ethnology and anthropology**

**DISSERTATION**

**Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) of Historical Sciences**

**Tashkent - 2025**

**The theme of the dissertation is registered at the Supreme Attestation Commission Republic of Uzbekistan under number B2023.3.PhD/Tar1619.**

Dissertation has been prepared in Institute of History of the Academy of Sciences Republic of Uzbekistan.

The abstract of dissertation has been posted in three language (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Scientific Council ([www.fati.uz](http://www.fati.uz)) and on "ZiyoNET" information-education portal ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Scientific consultant:</b>	<b>Adkhamjon Azimboyevich Ashirov</b> doctor of historical sciences, professor
<b>Official opponents:</b>	<b>Alisher Khudayberdiyevich Doniyorov</b> doctor of historical sciences, professor <b>Saodat Tilovberdiyevna Davlatova</b> doctor of historical sciences, professor
<b>Leading organization:</b>	<b>National University of Uzbekistan</b>

The defense of the dissertation will be held on **december "5", 2025**, at **14-00** at the meeting of the Scientific Council number DSc.02/03.12.2019. Tar.56.01 on awarding scientific degree of Doctor of Sciences at the Institute of History Uzbekistan Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Address 100047, Tashkent, Shakhrisabz street, 5. 8<sup>th</sup> floor Meeting room. Phone: (99871) 233-54-70; Fax: (99871) 233-39-91; e-mail: [info@fati.uz](mailto:info@fati.uz))

The doctoral dissertation can be reviewed in the Fundamental Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Registered number № \_\_\_\_). (Address: 100170, Tashkent, Ziyolilar Street, 13. Tel.: (99871) 262-74-58; Fax: (99871) 262-34-41).

Abstract of dissertation is delivery 20 november 2025.  
(Registry protocol № 17 dated 19 november 2025).



**Azamat Ziyo**

Chairman of the Scientific Council on awarding academic degrees, doctor of historical sciences, academic

**Kh.S. Jumanazarov**

Scientific secretary of the Scientific Council on awarding the scientific degrees, doctor of historical sciences (DSc)

**F.S. Boboyev**

Chairman of Scientific seminar under Scientific Council on awarding academic degrees, Doctor of historical sciences (DSc)

## INTRODUCTION (PhD) dissertation abstract)

**The relevance and necessity of the dissertation topic.** In the context of globalization, the issue of identifying the roots of the cultural identity, customs, and values of Turkic peoples represents one of the most pressing research directions both regionally and globally. The sources created during the Timurid era – a crucial stage in the development of Uzbek statehood – continue to serve as an essential factor in understanding not only the history of the Uzbek nation but also the broader progress of human civilization. From this perspective, conveying the rich historical and cultural heritage of this period in its authentic form to future generations and the wider public remains a matter of considerable scholarly relevance.

A wide range of studies on the history of Zahiriddin Muhammad Babur and the Baburid era are being carried out in numerous research institutions around the world. In these studies, Babur's "Baburname" is recognized as a primary source for examining the cultures of Turkic, Afghan, and Indian peoples. Substantial research has been conducted in the fields of source studies, historiography, and cultural studies based on this work. Furthermore, ethnographic analysis of the "Baburname" – including its reflections on ethnic history, toponymy, nature and flora, aspects of economic life, interpretations of family and domestic relations, as well as issues of tangible and intangible cultural heritage – holds particular scholarly significance.

In New Uzbekistan, further development of scholarly research – especially large-scale investigations devoted to studying sources that illuminate periods of special importance in Uzbek culture, as one of the key directions of the historical sciences – is being prioritized. Providing a comprehensive and impartial assessment of the history of the Uzbek people and statehood on the basis of primary sources, and ensuring that "even a single page of a manuscript related to our history, culture, and religion is collected, introduced to our people and youth, so that they may understand the greatness and uniqueness of our heritage and be raised as worthy heirs of this noble legacy,"<sup>1</sup> has been identified as one of the urgent tasks. In this regard, the "Baburname", as an ethnological source that sheds light on the socio-economic life, daily practices, economic activities, and material and spiritual culture of society in the 15th – 16th centuries, is of exceptional scholarly value.

This dissertation, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks outlined in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 of September 11, 2023, "On the Strategy Uzbekistan – 2030," Resolution No. PQ-2995 of May 24, 2017, "On Measures to Further Improve the System of Preserving, Researching, and Promoting Ancient Written Sources," Resolution No. PQ-126 of February 10, 2022, "On Additional Measures for Improving the System of Preserving and Studying Ancient Written Sources," Resolution No. PQ-20 of January 25, 2023, "On the Wide Celebration of the 540th Anniversary of the Birth

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 471-bet

of the Great Poet, Scholar, and Prominent Statesman Zahiriddin Muhammad Babur,” as well as the speech of April 15, 2025, on naming the New Andijan settlement “Babur City,” and other relevant normative-legal documents regulating this field of activity.

**Compliance of the research with the priority areas of development of science and technology of the Republic.** This research has been carried out in accordance with Priority Area I of the Development of Science and Technology in the Republic: “Formation of a system of innovative ideas and their implementation in the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information-oriented society and a democratic state.”

**The Degree of Scholarly Investigation of the Problem.** Zahiriddin Muhammad Babur made significant contributions to world history through his rich scholarly legacy, his principles of state governance, and his mastery of military strategy. A number of scholars have conducted research on his views related to diplomacy, his depictions of the life of the people, his respect for tangible and intangible cultural heritage, his ideas regarding environmental protection, and his initiatives in construction and development. Therefore, the study of the Baburnama from a historical-diplomatic perspective may be conditionally divided into three groups:

1. Research conducted during the Soviet period.
2. Scientific studies carried out during the years of independence.
3. Foreign researches.

An analysis of the historical research devoted to Zahiriddin Muhammad Babur and his Baburnama shows that, although certain studies have made use of sections of the work related to diplomatic practices, the text has not yet been examined as a specialized academic study from the standpoint of ethnography. The historiography of the topic is discussed in detail in Chapter 1 of this dissertation.

**The connection of the research with the plans of the research institution where the dissertation was completed.** This dissertation has been carried out within the framework of the two-volume academic research project of the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, “The Uzbeks: History, Culture, and Traditions (from Ancient Times to the Present).”

The purpose of the research is to reveal the significance of the “Baburname” as an important source in the study of the ethnology of Turkic peoples.

**Tasks of the research:**

To conduct a source-critical and historiographical analysis of the “Baburname”;

to substantiate the ethnonyms and toponyms recorded in the work that pertain to the history of Turan;

to analyze Zahiriddin Muhammad Babur’s views on nature and plants, as well as the sections of this encyclopedic work related to the natural world and flora;

to undertake a comparative study of the economic life of the Turkic peoples in the medieval period through the lens of the “Baburname”;

to compare the family rituals and traditions described in the work with the national values of the Uzbek people;

to identify and analyze the clothing recorded in the “Baburname” and its transformations during the Baburid period;

to conduct a comparative ethnological analysis of intangible cultural heritage reflected in the work – particularly folk festivals, fairs, and traditional games – within the broader context of Turkic peoples.

**The object of the study** is the “Baburname”.

The subject of the research is defined as the ethnographic study, through the “Baburname”, of the lifestyle, economy, and tangible and intangible cultural heritage of the Turkic peoples who lived in Turan during the medieval period.

**Research methods.** The dissertation employs research methods such as systemic and systemic-functional analysis, statistical-comparative comparison, and chronological analysis.

**The scientific novelty of the study is as follows:**

Based on the text of the “Baburname”, over one hundred ethnographic terms related to the ethnology of Turkic peoples have been systematically compiled and analyzed. It has been scientifically substantiated that these terms, categorized thematically into fields such as ethnic history, toponymy, economy, botany, and both tangible and intangible culture, serve as significant sources for studying the ethnological heritage of the Uzbek people.

